RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJIRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDA RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	



MA'LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI

Maxamadiyev M. M.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ma'lumotlar bazasining ahamiyati, bulutli ma'lumotlar bazalarining kengayib borayotgan qo'llanilishi, zamonaviy ma'lumotlar omborlari arxitekturasini, real vaqt analitika tizimlari hamda sun'iy intellektning ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyasi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, ularning raqamli infratuzilma taraqqiyotiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'lumotlar bazasi, bulutli ma'lumotlar bazasi, zamonaviy ma'lumotlar ombori, real vaqt analitikasi, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya.

Abstract. This article analyzes the importance of databases in the context of digital transformation, the growing use of cloud databases, the architecture of modern data warehouses, real-time analytics systems, and the integration of artificial intelligence with databases based on scientific sources, highlighting their impact on the development of digital infrastructure.


Keywords: database, cloud database, modern data warehouse, real-time analytics, big data, artificial intelligence, digital transformation.

Аннотация. В данной статье на основе научных источников проанализированы значение баз данных в условиях цифровой трансформации, расширяющееся использование облачных баз данных, архитектура современных хранилищ данных, системы аналитики в реальном времени, а также интеграция искусственного интеллекта с базами данных, освещено их влияние на развитие цифровой инфраструктуры.

Ключевые слова: база данных, облачная база данных, современное хранилище данных, аналитика в реальном времени, большие данные, искусственный интеллект, цифровая трансформация.

KIRISH

Bugungi raqamli davrda ma'lumotlar hajmining portlashi va ularni samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo'yicha yaratilayotgan raqamli ma'lumotlar miqdori yil sayin keskin o'smoqda — IDC tadqiqotiga ko'ra, 2018-yildagi 33 zettabayt hajmdagi ma'lumotlar 2025-yilga kelib 175 zettabaytgacha ko'payishi bashorat qilingan. Shu bois, raqamli transformatsiya jarayonida ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish texnologiyalari — ma'lumotlar bazasi tizimlari — tobora muhim o'rin tutmoqda.



1-rasm. Ko'p klasterli umumiy ma'lumotlar arxitekturasini



Ma'lumotlar bazasi (MB) – bu tuzilgan ko'rinishdagi ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, boshqarish va ulardan tezkor foydalanishni ta'minlovchi dasturiy tizimdir [1]. An'anaviy relatsion MBlar o'n yillab korxonalar, banklar, davlat tashkilotlari va boshqa ko'plab sohalarining asosiy ma'lumot saqlash vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. Ushbu tizimlarda ma'lumotlar qat'iy struktura – jadval, qator va ustunlar shaklida saqlanadi va ular ustida turli amallarni bajarish uchun SQL kabi standart so'rov tillaridan foydalaniladi. Relatsion MBlarning asosiy afzalliklari — ma'lumotlarning yaxlitligi, ishonchiligi, tranzaksiyalarni boshqarish imkoniyati va murakkab amaliyotlarda ham barqaror ishlashidir.

Biroq, so'nggi yillarda global raqamli ekotizimda kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar MB texnologiyalarini ham tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bugungi kunda generatsiya qilinayotgan ma'lumotlarning hajmi, xilma-xilligi va tezligi mutanosib ravishda oshib bormoqda. Korxonalar endi nafaqat an'anaviy tuzilgan ma'lumotlar, balki video, tasvir, sensor o'qishlari, ijtimoiy tarmoqlardagi oqimlar, IoT qurilmalaridan kelayotgan real vaqt signallari kabi nonstrukturaliy ma'lumotlar bilan ham ishlamoqda. Bu esa relatsion MBlarning imkoniyatlarini ayrim hollarda cheklab qo'ymoqda.

Shu sababli NoSQL texnologiyalari, bulutli ma'lumotlar bazalari, massiv parallel qayta ishlash tizimlari, ma'lumotlar omborlari (Data Warehouse) va zamonaviy Data Lake arxitekturalari keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa bulutli hisoblash xizmatlari – Amazon AWS, Microsoft Azure, Google Cloud – ma'lumotlarni saqlash, replikasiya qilish, xavfsiz boshqarish va global miqyosda ulardan foydalanish imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. Bulut bazalarining moslashuvchanligi, avtomatik kengayishi (scalability) va xizmat sifatining yuqoriligi korxonalar uchun katta ustunlik yaratmoqda.

Bunga qo'shimcha ravishda, biznesning real vaqt analitikasiga bo'lgan talabi ham tez ortmoqda. Bugungi raqamli iqtisodiyotda kompaniyalar millionlab tranzaksiyalarni bir zumda tahlil qilib, xulosa chiqarishi yoki qaror qabul qilishi kerak. Shu bois, MB tizimlari endi faqat "saqlash vositasi" emas, balki analitika platformalarining asosiy komponenti sifatida qaralmoqda.

Yana bir muhim omil — MBlarning sun'iy intellekt tizimlari bilan integratsiyasi. SI modellari samarali ishlashi uchun ulkan hajmdagi toza, tartiblangan va tezkor ma'lumot talab etiladi. Shu sababli zamonaviy MBlar SI jarayonlari uchun ma'lumot tayyorlash, real vaqt oqimlarini tahlil qilish, avtomatik indekslash va so'rovlarni optimallashtirish kabi funksiyalarni o'z ichiga ola boshladi.

Umuman olganda, ma'lumotlar bazalari raqamli transformatsiyaning markazida turibdi — ular korxonalarning axborot infratuzilmasi, analitik tizimlari, sun'iy intellekt platformalari va bulutli xizmatlarining poydevorini tashkil qiladi. MB texnologiyalarisiz bugungi global raqamli ekotizimni tasavvur etishning iloji yo'q.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ham MB sohasida yangi integratsiya imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Masalan, SI algoritmlari va mashinaviy o'qitish usullari MB tizimlariga singib borib, ular tomonidan qayta ishlanayotgan ma'lumotlarning hajm va tezlik bo'yicha misli ko'rilmagan o'sishiga xizmat qilmoqda [1,2].

Yuqoridagi omillar natijasida ma'lumotlar bazalari endi faqat oddiy ma'lumot saqlash vositasi bo'lib qolmay, balki zamonaviy raqamli platformalarning yadro bo'g'iniga aylangan. IDC ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga borib dunyodagi barcha ma'lumotlarning qariyb yarmi — 49% ulushi — jamoat bulutida saqlanishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, korxonalar va tizimlar ma'lumotlarni bulut bazalarida saqlash hamda ulardan real vaqtda foydalanish tarafdori bo'lmoqda.

Demak, raqamli texnologiyalar infratuzilmasida ma'lumotlar bazasi boshqaruvi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, samarali MB tizimisiz zamonaviy bulut platformalari, katta hajmdagi omborlar yoki real vaqt tahlil tizimlarini tasavvur etib bo'lmaydi [3].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy adabiyotlar sharhi va taqqoslama tahlil uslubidan foydalanildi. Dastlab, mavzu yuzasidan so'nggi yillarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari hamda sanoat tahliliy hisobotlari o'rganildi. Xususan, bulutli ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar omborlarining evolyutsiyasi, real vaqtda ma'lumot qayta ishlash platformalari va sun'iy intellektni MBga integratsiyalash tendensiyalari bo'yicha 10 dan ortiq nufuzli manba tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida tanlangan manbalarning aksariyati 2018–2025-yillarga tegishli bo'lib, ular orasida xalqaro ilmiy jurnallar (masalan, International Journal of Innovative Research in Science and Engineering, International Journal on Cybernetics & Informatics va boshqalar), IDC kabi tadqiqot kompaniyalari hisobotlari hamda IBM, Oracle kabi yetakchi IT korporatsiyalarning analitik maqolalari mavjud [1-3].



TAHLIL VA NATIJALAR


Tahlil jarayonida har bir yo'nalish bo'yicha MB texnologiyasining hozirgi holati va tendensiyalari ajratib olindi. Jumladan, bulutli MB bo'yicha – bulut infratuzilmasida ma'lumotlarni boshqarishning xususiyatlari va kengayish statistikasi; ma'lumotlar omborlari bo'yicha – an'anaviy va zamonaviy ombor arxitekturasini farqlari, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati; real vaqtda tahlil bo'yicha – real vaqtda oqim ma'lumotlarini qayta ishlash tizimlari va MB optimizatsiyasi; SI integratsiyasi bo'yicha – MB tizimlariga sun'iy intellekt elementlarini qo'shish (masalan, avtomatlashtirilgan sozlash, o'z-o'zini boshqaruvchi MB) hamda SI modellarini ma'lumotlar bazasi bilan birga qo'llash holatlari ko'rib chiqildi[2,4].



2-rasm. Zamonaviy Ma'lumotlar Ombori Arxitekturasini

Bulutli ma'lumotlar bazalari. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalar tez sur'atlarda bulut infrastukturasiga o'tib, o'z ma'lumotlar bazalarini ham bulut muhitida joylashtirishni afzal ko'rmoqdalar. 2023-yilda o'tkazilgan global so'rovnoma korxonalarning 78% dan ortig'i IT infratuzilmasida kamida bitta bulutli ma'lumotlar bazasi xizmatidan foydalanganini bildirgan. Bulutli MBlar an'anaviy lokal MBlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: ularning mashtablanishi oson (ehtiyojga ko'ra dinamik ravishda hisoblash quvvatini oshirish yoki kamaytirish mumkin), kechikish vaqtlari past, uzilishsiz xizmat ko'rsatish uchun ko'p zaxiradorlik (rezervatsiya) imkoniyatlari mavjud. Shu sababli bulutli yechimlar jadal ommalashmoqda. Masalan, 2023-yilda yangi ishga tushirilgan barcha ma'lumotlar bazasi instansiyalarining 62% qismi to'liq bulutga moslashgan (cloud-native) bo'lib, an'anaviy texnologiyalardan voz kechilgan. Bulut muhitida MBlar ko'plab yangi xususiyat va yondashuvlarni ilgari surmoqda. Jumladan, multi-bulut va gibrid bulut modellari keng qo'llanilmoqda: 2023 yilda korxonalarning 64% dan ko'prog'i ikki yoki undan ortiq bulut provayderida ma'lumotlar bazalarini parallel tarqatgan (multi-cloud) holda ishlatgan[1,5,7].

Data Cloud Architecture - Logical / Physical Assets



3-rasm. Bulutli Ma'lumotlar Bazalari Arxitekturasini



Ma'lumotlar omborlari va biznes tahlil. Ma'lumotlarni strategik qarorlar qabul qilishda qo'llash sohasida ma'lumotlar ombori (data warehouse) markaziy o'rin egallaydi. An'anaviy ma'lumotlar omborlari ko'p yillar davomida korporativ BI (Business Intelligence) tizimlarining bazasi bo'lib kelgan. Hozirgi paytda esa "zamonaviy ma'lumotlar ombori" tushunchasi shakllandi – u bulut arxitekturasini, real vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlash, ma'lumot ko'llari bilan integratsiya kabi ilg'or imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan yechimlarni anglatadi. Zamonaviy ma'lumotlar omborlari katta hajmdagi turli formatdagi ma'lumotlarni (strukturaviy, yarim strukturaviy va nostrukturaviy) bitta yagona platformada saqlash va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa tashkilot uchun "haqiqatning yagona manbai" (single source of truth)ni yaratadi[6].

Zamonaviy ma'lumotlar omborlari joriy etilishi natijasida tashkilotlar ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada kuchaytirdilar. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bugungi kunda deyarli har bir sohaga oid korxonalar katta hajmdagi ma'lumotlarini omborlarda jamlab, ulardan strategik rejalashtirish va biznes jarayonlarni optimallashtirishda foydalanmoqda.

Real vaqtda ma'lumot tahlili. So'nggi yillarda tashkilotlar uchun real vaqtda analitikadan foydalanish katta ustunlik sifatida qaralmoqda. An'anaviy tahlil tizimlari tarixiy yoki partiyalarga bo'lib yig'ilgan ma'lumotlar ustida ishlagan bo'lsa, endilikda biznes jarayonlar davomida yuzaga kelishi bilan oq ma'lumotlarni tahlil qilib, darhol choralar ko'rish imkonini paydo bo'lmoqda[8].

Sun'iy intellekt va ma'lumotlar bazasi integratsiyasi. Sun'iy intellekt (SI) tizimlarining muvaffaqiyati, eng avvalo, ularni ma'lumot bilan ta'minlashga bog'liq. SI algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlardan "o'rganish" evaziga o'z vazifasini bajara oladi, shu sababli amaliyotda "ma'lumot – bu sun'iy intellektning yoqilg'isi" deb bejiz aytilmaydi. Ushbu kontekstdan qaraganda, ma'lumotlar bazasi SI uchun fundamental infratuzilma vazifasini o'taydi. Yaxshi tashkil etilgan MBsiz kuchli sun'iy intellekt tizimini yaratib bo'lmaydi. IBM mutaxassislari ta'kidlashicha, generativ sun'iy intellektdan samarali foydalanishning siri ham aslida sifatli ma'lumotlar boshqaruvida – modelni doimiy ravishda yangi, sifatli ma'lumotlar bilan oziqlantirib borish uning dolzarbligini va aniqligini saqlaydi.

Yuqoridagi natijalar asosida bir qator umumiy xulosalar va tendensiyalar yuzaga chiqadi. Birinchidan, ma'lumotlar bazasi raqamli ekotizimning negiziga aylangan. Bulutli hisoblashdan tortib sun'iy intellektgacha barcha ilg'or texnologiyalar samarali ishlashi uchun ishonchli va kengayuvchan MB infratuzilmasiga tayanadi. Raqamli biznesda ma'lumotlar hajmining portlashi sharoitida MB texnologiyalarining ahamiyati yanada oshib bormoqda – dunyo bo'yicha ma'lumotlar hajmi 2025-yilga borib 175 ZB ga yetishi kutilayotgani buning yaqqol dalilidir. Ikkinchidan, texnologiyalar konvergensiyasi kuzatilmoqda. Ilgari alohida qaralgan "ma'lumotlar bazasi", "ma'lumotlar ombori", "analitika" va "sun'iy intellekt" tizimlari endilikda yagona integratsiyalashgan platforma sifatida ishlamoqda. Zamonaviy ma'lumotlar omborlari misolida bu yaxshi ko'rinadi – ular bulut infratuzilmasiga suyangan holda real vaqtda tahlil va hatto mashinaviy o'qitishni qo'llab-quvvatlamogda. Uchinchidan, muammolar va chaqiriqlar ham yo'q emas. Masalan, bulutli MB lar jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, yirik korxonalar doimiy ravishda legacy tizimlardan bulutga o'tishda migratsiya qiyinchiliklariga duch kelishmoqda[1,9,10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar bazalari raqamli iqtisodiyotning asosiy infratuzilmasi sifatida korxonalar, davlat idoralari, moliya sektori, tibbiyot, ta'lim va IoT ekotizimi kabi ko'plab sohalarda markaziy o'rin egallaydi. Ma'lumotlar hajmining keskin oshishi, ularning turli manbalardan oqib kelishi hamda real vaqt rejimida qayta ishlashga ehtiyoj kuchaygani MB texnologiyalariga sifat jihatidan yangi talablar qo'ymoqda. Bulutli hisoblashning ommalashuvi, data-sentrlarning kengayishi, sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitishning rivojlanishi, real vaqt analitikasi va katta ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlari ma'lumotlar bazalarini oddiy saqlash vositasidan zamonaviy raqamli platformalarning yadro tizimiga aylantirmoqda.

Bulutli ma'lumotlar bazalarining keng joriy etilishi korxonalarga tizimlarni masshtablash, infratuzilma xarajatlarini kamaytirish, moslashuvchanlikni oshirish va ma'lumotlarga uzluksiz kirishni ta'minlash imkonini bermoqda. Zamonaviy ma'lumotlar omborlari, Data Lake va Data Lakehouse texnologiyalari esa korxonalar uchun yagona haqiqat manbaini shakllantirib, strategik qarorlar qabul qilish sifatini oshirmoqda. Real vaqt analitikasi va oqimli ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlarining rivojlanishi MB larni operativ boshqaruv, monitoring va tezkor tahlil uchun yanada muhimlashtirdi. Sun'iy intellekt bilan integratsiya esa ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirib, MB tizimlarini yanada aqlli, avtonom va prediktiv imkoniyatlarga ega platformaga aylantirmoqda.

Kelgusida MB tizimlaridan samarali foydalanish uchun bir qator takliflar ilgari suriladi. Avvalo, korxonalar ma'lumotlarni boshqarish strategiyasini (Data Governance) ishlab chiqib, ma'lumotlarni yig'ish, tasniflash, saqlash, xavfsizlik va ulardan foydalanish jarayonlarini aniq tartibga solishi zarur. Infratuzilmani bosqichma-bosqich bulut arxitekturasiga o'tkazish tizimning chidamliligini oshiradi va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytiradi. Zamonaviy Data Warehouse va Data Lake platformalarini joriy etish katta hajmdagi ma'lumotlarni



tezkor qayta ishlash va chuqur analitik xulosalar chiqarish imkonini beradi. Sun'iy intellektga asoslangan tahliliy vositalarni qo'llash esa prognozlash, anomal holatlarni aniqlash va biznes jarayonlarini optimallashtirishda yuqori samaradorlik yaratadi.

Ma'lumotlar bazalarini boshqarish va rivojlantirishda mutaxassislar malakasini oshirish ham muhim omil bo'lib, data analyst, data engineer va MB administratorlari uchun muntazam o'qitish dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha qat'iy standartlar va siyosatlarini shakllantirish kiberxavfsizlik tahdidlarining oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ma'lumotlar bazalarini samarali boshqarish raqamli transformatsiya muvaffaqiyatining asosiy sharti bo'lib, zamonaviy bulut platformalari, katta ma'lumotlar ekotizimlari va real vaqt analitikasini tasavvur etib bo'lmaydi. MB texnologiyalarining yangi avlodini joriy etish korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi, boshqaruvni optimallashtiradi hamda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Patrizio, A. (2018, December 3). IDC: Expect 175 zettabytes of data worldwide by 2025. Network World. Retrieved from <https://www.networkworld.com/article/966746/idc-expect-175-zettabytes-of-data-worldwide-by-2025.html>
2. Reinsel, D., Gantz, J., & Rydning, J. (2017, April). Data Age 2025: The Evolution of Data to Life-Critical. IDC Whitepaper (Seagate Technology).
3. Dibouliya, A. (2023). Review on: Modern Data Warehouse & how is it accelerating digital transformation. International Journal of Advance Research, Ideas and Innovations in Technology, 9(2), 285–293.
4. Karunamurthy, A., Kulunthan, K., Dhivya, P., & Vickson, A. V. S. (2023). Cloud Database: Empowering Scalable and Flexible Data Management. Quing: International Journal of Innovative Research in Science and Engineering, 2(1), 1–14.
5. Unuriode, O. A., Durojaiye, M. O., Yusuf, Y. B., & Okunade, O. L. (2023). The Integration of Artificial Intelligence into Database Systems (AI-DB Integration Review). International Journal on Cybernetics & Informatics, 12(6), 161–172.
6. IBM (Aquino, J. & Jonker, A.) (n.d.). What is Real-Time Analytics? IBM Think Blog.
7. Erickson, J. (2024, September 18). 12 Benefits of Real-Time Analytics for Businesses. Oracle MySQL Blog. Retrieved from <https://www.oracle.com/mysql/real-time-analytics-benefits/>
8. Market Growth Reports. (2025, November 17). Cloud Database Market Size, Share, Growth, and Industry Analysis, By Type ... Regional Insights and Forecast to 2035. (Report ID: 100077). Last accessed December 2025
9. Foote, K. D. (2022, February 1). Database Management Trends in 2022. DATAVERSITY. Retrieved from <https://www.dataversity.net/database-management-trends-in-2022>
10. Grolinger, K., Higashino, W. A., Tiwari, A., & Capretz, M. A. M. (2013). Data management in cloud environments: NoSQL and NewSQL data stores. Journal of Cloud Computing: Advances, Systems and Applications, 2(1), 22. (Referenced in Karunamurthy et al. 2023)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
